

MAKTAB PSIXOLOGING O'QUVCHILAR IJTIMOY MOSLASHUVIDAGI ROLI

Xolmuminov Qobiljon Nodir o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq universiteti Amaliy psixologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15531912>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab psixologining o'quvchilar ijtimoiy moslashuviga ko'rsatadigan ta'siri tahlil etilgan. Ijtimoiy moslashuvning mazmuni, bolalarda uchraydigan asosiy psixologik to'siqlar va ularni bartaraf etishdagi maktab psixologining asosiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, psixologik diagnostika, korreksiya, profilaktika va maslahat berish faoliyatlari asosida maktab muhitida sog'lom psixologik muvozanat yaratishning samarali usullari ko'rsatib berilgan. Ota-ona va o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvi ta'minlanishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktab psixologi, ijtimoiy moslashuv, o'quvchi, psixologik yordam, sinf muhitida adaptatsiya, diagnostika, psixologik xizmat.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy dinamik jarayonlar sharoitida ta'lim muassasalarining vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Maktablar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi, emotsional barqarorlikka erishishi kabi murakkab psixologik jarayonlarda ham faol ishtirok etadigan institutga aylangan. Ayniqsa, o'sish bosqichida bo'lgan bolalar uchun sinf jamoasi, o'qituvchi bilan aloqa, do'stlar orasidagi munosabatlar katta ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy vaziyatlarga moslashish jarayonida o'quvchilar ko'plab psixologik to'siqlarga duch kelishlari mumkin.

Aynan shunday sharoitda maktab psixologi muhim vazifani bajaradi: u o'quvchi shaxsini chuqur anglash, ijtimoiy moslashuvdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli faoliyat olib boradi. Maktab psixologi nafaqat muammoga yechim topuvchi, balki ijtimoiy-psixologik sog'lom muhitni shakllantiruvchi mutaxassis sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa olishi va hissiy barqarorligi muhim omillar sifatida e'tirof etilmoqda [1].

Psixolog B.M.Umarov o'z asarida inson psixikasining rivojlanishini ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq deb hisoblaydi. Unga ko'ra, bola jamiyatda o'zini tutish, o'z-o'zini anglash va boshqalar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini aynan ijtimoiy muhitda o'zlashtiradi. Maktab esa bu ijtimoiy tajribaning asosiy maydoni hisoblanadi. Shu bois, o'quvchining sinfdoshlar bilan o'zaro munosabati, o'qituvchi bilan muloqoti va darsdan tashqari faoliyatlardagi ishtiroki uning shaxsiy xususiyatlarini shakllantiradi. Bu fikr Lev Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bilan hamohang bo'lib, bola o'zi mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni boshqalar yordamida bajarish orqali rivojlanadi, degan g'oyani ilgari suradi. Demak, o'quvchining psixik va ijtimoiy rivojlanishida maktab psixologining yo'naltiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi roli muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Umarovning yondashuvida shaxsiy fazilatlar-mas'uliyat, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish kabi psixologik xususiyatlar ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida tarkib topadi. Bu jihatdan maktab psixologi bolani faqat tashqi muammolarini hal etuvchi emas, balki ichki ijtimoiy faollikni uyg'otuvchi shaxs sifatida ko'rilishi kerak. Maktab muhitida bola nafaqat bilim oladi, balki o'zini jamiyatning bir bo'lagi sifatida his qilishni, muloqot qilishni, o'z fikrini ifoda etishni ham o'rganadi [2].

Maktab psixologining faoliyati o'quvchining ichki dunyosini ochish, u bilan individual ishlash orqali uning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Psixologik

yondashuvda, ayniqsa, ijtimoiy moslashuvga qaratilgan faoliyatlar-guruhli treninglar, rol o'yinlar, empatiyani rivojlantiruvchi mashqlar-bolaning o'z tengdoshlariga nisbatan ishonch va hurmat bilan qarashini ta'minlaydi. Bu esa shaxsning jamiyatda to'laqonli ishtirok etishi uchun zarur poydevor hisoblanadi.

Bundan tashqari, bola maktab muhitida o'z qiziqishi, qobiliyati, yetakchilik fazilatlarini ham namoyon eta boshlaydi. Bunday jarayonlarda psixolog bolaning ijtimoiy rolini aniqlab borishi, unga shaxs sifatida o'zini topishiga yordam berishi kerak. Har bir o'quvchining psixologik portretini yaratish, uning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash orqali moslashtirilgan metodlar ishlab chiqiladi.

Psixologik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy moslashuvdagi muvaffaqiyat faqat tashqi sharoitlarga bog'liq emas. Bu bolaning ichki tayyorgarligi, o'z-o'zini anglash, his-tuyg'ularini boshqarish, vaziyatlarga nisbatan ongli yondashuvi bilan ham bog'liq. Ana shu holatlarda maktab psixologi faqat maslahatchi emas, balki rivojlantiruvchi, motivatsiya beruvchi mutaxassis sifatida harakat qilishi kerak. O'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi-bu ularning jamiyatga kirishib ketish, o'zini jamoada tutish, vazifalarni ado etish va atrofdagilar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatish qobiliyatidir [3].

Biroq bu jarayonda bolalar ko'pincha qiyinchiliklarga duch keladilar: uyatchanlik, tajovuzkorlik, jamoadan chetlashish yoki do'st orttira olmaslik hollari ko'p kuzatiladi. Gaynutdinova va hamkor mualliflar tomonidan ta'kidlanganidek, ijtimoiy moslashuv bu faqat tashqi muhitga ko'nikish emas, balki shaxsning ichki holatining ijtimoiy talablar bilan muvofiqlashuv jarayonidir. Ular alohida ehtiyojli o'quvchilar misolida ko'rsatadiki, ijtimoiy moslashuv jarayoni bolaning o'zini qanday qabul qilishi, qanday ijtimoiy rolga ega bo'lishi, tengdoshlar bilan qanday aloqa o'rnatishini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, maktab psixologi uchun asosiy vazifa-o'quvchining o'z individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, uning sinfda va maktabda ijtimoiylashuviga to'siq bo'layotgan ichki va tashqi omillarni aniqlashdir. Bular orasida: hissiy labillik (tez o'zgaruvchan kayfiyat), o'z-o'zini qadrlashdagi muammolar, kommunikativ faollik pastligi, ijtimoiy tashabbus yetishmasligi kabi holatlar mavjud bo'lishi mumkin.

Mualliflar ijtimoiy moslashuvning uch bosqichini ko'rsatadilar:

1. Psixologik tayyorgarlik-bola o'ziga bo'lgan ishonchni hosil qilishi va o'rganishga ochiq bo'lishi kerak.
2. Jamoadagi o'z o'rnini anglash-bola guruh ichida o'z pozitsiyasini biladi va unga mos ravishda harakat qiladi.
3. Barqaror ijtimoiy xulq-o'quvchi muloqotda, faoliyatda va rol o'yinlarida mustaqil, ijobiy va barqaror bo'lishi kutiladi.

Bu yondashuv maktab psixologining ishini faqat "muammoni aniqlash" bilan cheklamaydi. Aksincha, u bola bilan uzoq muddatli, tizimli ishlashni, har bir bosqichda individual strategiyalarni tanlashni talab qiladi. Shu bilan birga, psixologga katta mas'uliyat yuklaydi: har bir bola o'ziga xos ekanligini tan olish, uni boshqa bolalar bilan solishtirmasdan, rivojlanish yo'lida yo'naltirish kerak. Mualliflar tomonidan tavsiya etilgan metodikalar-ya'ni ko'rgazmali treninglar, rolikli o'yinlar, ijtimoiy hikoyalar, rasmi diagnostika, bola bilan noinvaziv va xavfsiz muloqot imkonini beradi. Bunday usullar faqat alohida ehtiyojli emas, balki umumiy sinf o'quvchilari bilan ishlashda ham samarali. Maktab psixologi ushbu yondashuvlar orqali o'quvchining o'zini jamiyatda qabul qilingan va qadrlangan shaxs sifatida his qilishiga imkon yaratadi. Aynan shu hissiyot ijtimoiy moslashuvning chuqur, barqaror va samarali

shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday vaziyatlarda maktab psixologi muhim rol o'ynaydi. U o'quvchining emotsional holatini, shaxsiy xususiyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini o'rganadi, muammolar-ni erta bosqichda aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi [4].

Shoimqulova o'z tadqiqotida maktabdagi psixologik xizmatni ta'lim muassasasining ajralmas va strategik tarkibiy qismi deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, maktab psixologining vazifasi faqat muammoga javob berish emas, balki o'quvchilarda psixologik madaniyatni shakllantirish, psixologik ongni rivojlantirish va ijtimoiy his-tuyg'ularni boshqarishga o'rgatishdir. Ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, maktab muhitida ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi uchta asosiy omilga bog'liq:

1. Psixologik barqarorlik–bola o'z emotsiyalarini idora qila oladi.

2. Ijtimoiy kompetensiya–bola guruh ichida o'zini tutish qoidalarini anglaydi va ularga amal qiladi.

3. Ichki motivatsiya–bola jamiyatda faol ishtirok etishga ichki ehtiyoj sezadi.

Shoimqulova maktab psixologining bu omillarni rivojlantirishdagi o'rnini to'rt yo'nalishda ko'rsatadi:

- Diagnostika–sinfda umumiy ijtimoiy muhitni, shuningdek har bir o'quvchining individual ijtimoiy holatini baholash.

- Rivojlantiruvchi ishlar–trenting, muloqot darslari, psixota'lim mashg'ulotlari orqali ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish.

- Korreksion yondashuv–xatti-harakatdagi buzilishlar, emotsional muammolar bilan tizimli ishlash.

- Profilaktika–ijtimoiy tashvish, yolg'izlik, ajralganlik hissining oldini olish.

Shoimqulova ijtimoiy moslashuvni faqat bolaning ichki holatiga qarab emas, balki sinf muhitining sog'lomligi, o'qituvchi-pedagoglarning emotsional madaniyati, ota-onalarning bolaga bo'lgan munosabati bilan bog'laydi. Shu sababdan u "maktab psixologi-muvofiqlashtiruvchi va ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy figura" degan fikrni ilgari suradi. Muallif ta'kidlaydiki, maktabdagi psixologik xizmat individual terapiya bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Aksincha, butun sinfga qaratilgan profilaktik psixologik ta'lim ham dolzarbdir. Masalan: "o'zini anglash" va "do'stlikni rivojlantirish" kabi mavzulardagi treninglar orqali sinfda sog'lom psixologik iqlim yaratiladi, bu esa moslashuvni sezilarli darajada tezlashtiradi. Shoimqulova yondashuvi maktab psixologini bolalarning psixik himoyachisi, rivojlanish strategini va ijtimoiy moslashuvni yengillashtiruvchi ko'prik sifatida ko'rsatadi. Bunday yondashuv bugungi kun psixologik xizmatlari uchun zamonaviy va moslashuvchan yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Psixolog o'z ishida turli metodlardan foydalanadi: kuzatuv, individual suhbat, test va so'rovnomalar yordamida ijtimoiy-emotsional muammolarni aniqlaydi, trening va guruh mashg'ulotlari orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi [5].

L.I.Bojovich va uning ilmiy maktabi vakillari bolaning shaxs sifatida shakllanishini uning faoliyati va ichki motivatsiyasi bilan bog'laydi. Ular fikricha, bolaning har qanday xatti-harakati ortida ma'lum bir ichki ehtiyoj, maqsad va emotsional holat yotadi. Shuning uchun, o'quvchining ijtimoiy muhitga qanday moslashayotganini to'g'ri baholash uchun, uning ichki motivatsion tizimini tahlil qilish zarur. Bojovich shaxs rivojida motivlar tizimi markaziy o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Masalan, bir qarashda bolani "darsga qatnashmayapti" deb baholash mumkin. Ammo bu faqat tashqi belgidir, uning ortida o'zini sinfda begona his qilish, o'qituvchiga ishonmaslik yoki o'zining foydasizligiga ishonch singari chuqur psixologik sabablar yotishi mumkin. Maktab psixologi uchun esa aynan ana shu chuqur omillarni aniqlash

va ularga ta'sir ko'rsatish vazifasi dolzarbdir. Bojovichning yondashuvi o'quvchining moslashuvdagi xatti-harakatini "sifatli tahlil qilish" zaruriyatini ko'rsatadi. Bunda quyidagi savollar muhim:

- Bu xatti-harakat bolaning qanday ehtiyojidan kelib chiqmoqda?
- U qanday ijtimoiy vaziyatda yuz berdi?
- Ushbu harakat bolaning o'z-o'zini anglashiga qanday ta'sir qiladi?

Psixologik yondashuvda, aynan faoliyatga tayanib shaxsni o'rganish orqali bolaning ijtimoiy moslashuvini chuqur anglash mumkin bo'ladi. Bojovich bolani "faol ijtimoiy mavjudot" sifatida talqin qiladi. Ya'ni, bola jamiyatda o'ziga o'rin qidiradi, ma'no izlaydi, o'zini anglashga intiladi. Shuning uchun ijtimoiy moslashuv bu oddiy "muvoqlashuv" emas, balki bolaning ongli tanlovi, hissiy reaksiyasi va maqsadli harakati natijasidir. Bu nazariy qarashdan kelib chiqib, maktab psixologi: faqat tashqi xatti-harakat emas, uning ichki sabablari bilan ishlashi, bolaning motivatsiya tizimini aniqlashi, har bir ijtimoiy vaziyatni bola qanday idrok qilayotganini tushunishi va o'quvchining shaxsiy o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratishi kerak. Demak, Bojovich yondashuvi maktab psixologini "moslashtiruvchi emas, balki shakllantiruvchi", ya'ni shaxsni ongli ravishda yo'naltiruvchi mutaxassis sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, maktab psixologi o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlaydi. Chunki bola muammolarining ildizi ko'pincha oilaviy yoki sinf muhitidagi muvozanatsizliklarga borib taqaladi. Shuning uchun psixolog maktab jamoasini ham psixologik madaniyat bilan qurollantirishga harakat qiladi [6].

Ijtimoiy moslashuv faqatgina muammolarni bartaraf etish emas, balki ijobiy shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash va jamiyatda faol ishtirok eta olishga tayyorlashdir. Psixologik yordam olayotgan o'quvchilar o'zlarini jamoadan chetda emas, balki uning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladilar, bu esa ularda o'qishga, o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi [7].

Z.Norqulova o'z tadqiqotlarida maktab psixologining vazifalarini pedagogik jarayon bilan uzviy bog'liq tarzda tahlil qiladi. U maktab psixologiyasini shunchaki maslahat berish yoki diagnostika qilish bilan cheklamaydi. Aksincha, uni o'quvchining shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan kompleks tizim deb ko'rsatadi. Z.Norqulovaga ko'ra, maktab psixologining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik faoliyatga psixologik ko'mak – o'qituvchiga har bir o'quvchining individual jihatlarini tushunishga yordam berish.
2. Sinf iqlimini tahlil qilish – o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, liderlik pozitsiyasi, ijtimoiy rollarni kuzatish orqali ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish.
3. O'quvchining ichki ziddiyatlarini aniqlash va yengillashtirish–psixologik suhbatlar, kuzatuv, testlar orqali yashirin muammolarni ochish. Norqulova maktabdagi psixologik xizmatni "ixtisoslashtirilgan hamkorlik modeli" deb talqin qiladi. Bu modelda psixolog mustaqil ishlamaydi, balki sinf rahbari, fan o'qituvchilari, ota-onalar va ma'muriyat bilan birgalikda harakat qiladi. Aynan shunday integratsiyalashgan yondashuv ijtimoiy moslashuvda maksimal natijani ta'minlaydi.

Shuningdek, u o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi, o'zini qadrlashi, kommunikatsiya ko'nikmalarini kuchaytirishni ijtimoiy moslashuvning asosi deb hisoblaydi. Agar o'quvchi sinfda o'zini erkin tuta olsa, o'z fikrini ochiq ayta olsa, tengdoshlar tomonidan qabul qilinsa-bu uning shaxsiy faolligi va ijtimoiy barqarorligiga zamin yaratadi. Norqulovaning fikrlari maktab psixologini muammoga javob beruvchi emas, balki o'sishni boshqaruvchi, rivojlanishga

yo'naltiruvchi mutaxassis sifatida talqin etadi. Bunday yondashuv aynan psixologik xizmatning rivojlangan shakliga, ya'ni ilg'or va kompleks faoliyatga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktab psixologining o'quvchilar ijtimoiy moslashuvidagi roli zamonaviy ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda uchraydigan psixologik va ijtimoiy muammolar-uyatchanlik, past ijtimoiy faollik, do'stlashishdagi qiyinchiliklar-o'z vaqtida aniqlanmasa, ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, maktab psixologi o'quvchilarning emotsional holatini tushunish, ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtirish, sinfdagi sog'lom psixologik iqlimni shakllantirishda muhim mutaxassis sifatida maydonga chiqadi. Ilmiy manbalar va amaliy tajribalar tahlili asosida aytish mumkinki, maktab psixologik xizmati faqatgina muammoga javob beruvchi emas, balki profilaktik va rivojlantiruvchi funktsiyani ham bajarishi kerak. Har bir bola individual yondashuvga, o'ziga xos psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj. O'quvchining ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, shaxs sifatida shakllanishi va kelajakdagi muvaffaqiyatli integratsiyasi ko'p jihatdan maktab psixologining faoliyati bilan bog'liq. Shunday qilib, maktab psixologi-bu o'quvchining shaxsiy o'sishini yo'naltiruvchi, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtiruvchi va ta'lim-tarbiyada psixologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim figura hisoblanadi.

REFERENCES

1. Umarov B.M. Psixologiya. Toshkent: "O'qituvchi", 2012.
2. Z.Nishonova Z., Ergashev P. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.
3. Gaynutdinova L., Kasimova M., Mo'minova S., Alimova G. Alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash usullari. Toshkent: "Fan", 2022.
4. Shoimqulova M.Sh. Maktabda psixologik xizmat. Toshkent: "Ilm Ziya", 2023.
5. Bojovich L.I. Shaxs taraqqiyoti psixologiyasi. Moskva: "Pedagogika", 2000.
6. Amonova D. Psixologik maslahat va maslahat berish texnologiyalari. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2020.
7. Norqulova Z. Maktab psixologiyasi asoslari. Buxoro: "BuxDU nashriyoti", 2021.